FA vitse-prezidenti Shahlo Turdikulova YuNESKO bosh qarorgohida o’tkazilgan Ilmiy diplomatiya bo’yicha Global vazirlar muloqotiga ishtirok etdi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Turdikulova YuNESKO bosh qarorgohida o’tkazilgan Ilmiy diplomatiya bo’yicha Global vazirlar muloqotiga ishtirok etdi.

unesco
Dialogue ministériel mondial
sur la diplomatie scientifique
La diplomatie scientifique dans un monde en mutation rapide
Construire la paix dans l'esprit des hommes et des femmes
25-26 MARS 2025
Siège de l'UNESCO, Paris

Mazkur muhim tadbir 2024–2033-yillarga mo’ljallangan Barqaror rivojlanish uchun ilm-fan xalqaro o’n yilligi doirasida tashkil etildi va dunyo mamlakatlarining hukumat, ilm-fan va xalqaro tashkilotlar vakillarini birlashtirdi.

Muloqot yakunida Vazirlar darajasidagi Qo’shma Bayonot qabul qilindi. Unda ilmiy diplomatiyaning tinchlikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va global muammolarni hal etishdagi hal qiluvchi roli qayd etildi.

Bayonotda quyidagi muhim jihatlar ta’kidlandi:
ochiq va inklyuziv ilmning ahamiyati;
ilmiy ma’lumotlarga asoslangan diplomatik qarorlar qabul qilish;
ilmiy diplomatiya sohasida inson va institut salohiyatini rivojlantirish zarurligi.

Ushbu muhim tadbirda O'zbekiston vakilining ishtiroki ishonch, muloqot va barqaror kelajak sari xizmat qilish yo’lidagi yana bir muhim qadamlardan biridir.